

“MANGULIKKA MUXTASAR NAZAR” KITOBİ HAQIDA

Bekposhsha Rahimova

Department of Uzbek Literature, Faculty of Philology,

Urgench State University, Urgench, Uzbekistan

E-mail address: bekposhsharahimova726@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada shoir, tarjimon, publitsis Matnazar Abdulhakim ijodi haqida yozilgan professor Hamdam Abdullayevning “Mangulikka muxtasar nazar” asari tahlilga tortiladi.

Kalit soʻzlar: Shoir, tarjimon, adabiyotshunos-publitsist, poetik tahlil, badiiyat, tur va janrlar, sonet, mavzu, gʻazal.

О КНИГЕ” ВЗГЛЯД В ВЕЧНОСТЬ”

Аннотация: В данной статье анализируется произведение профессора Хамдама Абдуллаева “Мангулига Мухтасар Назар”, написанное о творчестве поэта, переводчика, публициста Матназара Абдулхакима.

Ключевые слова: Поэт, переводчик, литературовед-публицист, поэтический анализ, искусство, виды и жанры, сонет, тема, Газель.

ABOUT THE BOOK " A SHORT LOOK AT ETERNITY"

Annotation: Professor Hamdam Abdullayev's work “a short look at Eternity”, written in this article about the work of poet, translator, Publicis Matnazar Abdulhakim, is subject to analysis.

Keywords: Poet, translator, literary critic-publicist, poetic analysis, art, species and genres, sonnet, subject, Ghazal.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotining koʻzga koʻringan vakillaridan biri, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, koʻpqirrali ijodkor Matnazar Abdulhakimning hayoti ham, ijodi ham ibrat namunasidir. U XX asr oxiri va XXI asr boshidagi oʻzbek adabiyoti tarixiga shoir, tarjimon va adabiyotshunos-publitsist sifatida kirdi, “donishmand shoir” maqomida tanildi. Uning oʻttizdan ziyod kitoblari, original va tarjima asarlari, Sharq tafakkuri falsafasi munosabatlariga doir tahliliy bitiklari davr adabiyoti, estetikasi va badiiy publitsistikasi takomiliga muayyan hissa boʻlib qoʻshiladi. Matnazar Abdulhakimning teran falsafiy-ijtimoiy qarashlari, ibratomuz hikmatli fikrlari turfa sheʼriy shakllarda turli miqyos va darajada aks etsa ham ularda muallifning oʻziga xos poetik nigohi, badiiy tafakkur tarovati qabarib turadi. Shoirning istiqlol arafasi va ilk davridagi yaratgan asarlarida Inson fenomenini yuksak maqsad va ideallar mujassami sifatida talqin qilindi, hayot va shaxs tushunchalari tadrijida murakkab ijtimoiy jarayonda bashar qiyofasi ifodasi, adolat va haqiqatga mehr, razolatga nafrati, umr va inson shaʼnini qadrlash, Vatan va xalqqa sadoqat tuygʻulari ifodasiga qaratildi. Shuningdek, mumtoz va zamonaviy sheʼriyati, turli tillardan qilgan tarjimalari, adabiy-estetik qarashlarini yaxlit mazmuni istiqlol davridagi erkin ijod qilish tamoyilining namunasi boʻlib, zamondoshlarimizni maʼnan boyitishga, ong-shuuriga ezgulik fazilatlarini chuqur singdirishga xizmat qilmoqda.

Matnazar Abdulhakim ijodi haqida adabiyotshunoslikda yozilgan qator maqolalarda shoir sheʼriyati talqini salmoqli oʻrin tutadi. Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov “Teran ijod” maqolasida shoirni “donishmand, toʻgʻrisoʻz, nihoyatda nozik fikrlaydigan, butun vujudi,

borlig'i iste'dod ganjiga to'liq inson edi",- deya ta'riflaydi va shunday yuksak fikrlarni yozadi: "Matnazar Abdulhakimning "Saylanma" she'rlar kitobini o'qib chiqqach, uning poeziyasi haqida nimadir yozgim keldi. Biroq ko'z oldimda Matnazarning donishmand nigohi turar, nimaiki yozsang ham unga munosib bo'lmog'i shartdek ko'rinar edi. Matnazar Abdulhakim butun vujudi, borlig'i iste'dod ganjiga to'liq inson edi... u oramizdan ketdi, biroq uning ijodi haqida yozish sizni biz tiriklarning bo'ynimizda turibdi"¹. Bu da'vatkor fikrlar Matnazar Abdulhakim ijodi va shaxsiyati haqida qator ilmiy tadqiqotlarning yaratilishiga turtki bo'ldi, nazarimizda. Sh.Matkarimovning "Ustoz haqida so'z" (2013), Q.Salayevning "To'rtinchi muallim saboqlari" (2015), 33 nafar mualliflar jamoasining "Matnazar Abdulhakimni eslab" (2016) kabi risolalari shular jumlasidandir.

Ana shunday tadqiqotlardan biri adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayevning 2018 yil "Xorazm" nashriyotida chop qilingan "Mangulikka muxtasar nazar" deb nomlangan kitobidir². Hamdam Abdullayevning Matnazar Abdulhakim ijodi haqidagi tadqiqotlari shoirning ilk to'plamlari chiqqan paytlardayoq boshlangan va respublika hamda mahalliy matbuot nashrlarida chop qilingan. Bu haqda olim "to'plamga jamlangan maqolalarning bir qismi Matnazar hayot davrida, asosiy qismi esa keyingi yillarda yozildi. Ularning aksariyati "Sharq yulduzi", "O'zbek tili va adabiyoti", "Ilm sarchashmalari", "Badiiy tafakkur va adabiy jarayon" jurnallari, shuningdek gazetalar sahifalarida chop etildi, ayrimlari qo'lyozma holidadir. Maqolalar xronologik tartibda joylashtirilib, ularga tegishli sanalar va bosilgan manbalari ko'rsatildi"- deb ma'lumot beradi.

Ma'lum bo'ladiki, "Mangulikka muxtasar nazar" kitobida olimning turli davrlarda matbuotda nashr etilgan maqolalari va shoir ijodi haqidagi keyingi kuzatishlari e'lon qilingan. H.Abdullayev mazkur adabiy-ommabop risolasida shoir ijodiy faoliyati qirralariga umumiy nazar tashlaydi, she'riyatidagi falsafiy-intellektual motivlarning yetakchiligini, fors tilidan tarjimalaridagi mahoratiga va adabiy-estetik qarashlaridagi zukkolikni qayd etadi.

Olim Matnazar Abdulhakimning badiiy va ilmiy tafakkur ufqlari qamrovli, fikr mohiyati teran, ifoda tarzi ravon ijodkor sifatida e'tirof etib, uning she'rlarida yuksak estetik did, voqelik va kechinmalarni badiiy kashf etish salohiyati yorqin ko'rinishi, ilmiy ommabop maqolalarida adabiy merosni, xususan, o'tmish badiiy yozma qadriyatlarini chuqur anglash va idrok etish iqtidori namoyon ekanligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, Matnazar Abdulhakim she'rlari, avvalo, mavzu qamrovi kengligi, shakl jihatdan rang-barangligi va teran poetik ma'no hamda shoir nigohining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Ularning barchasiga xos mushtarak xususiyat esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish va uni go'zal, ta'sirchan ifodalashdir.

Olimning adabiyotshunos N.Jumaniyozova bilan hammualliflikda yozgan "Falsafiy teranlik poetik ohanglarda" nomli maqolasida Matnazar Abdulhakim ijodining mavzu jihatdan rang-baranglik kasb etib, mazmunan teranlashgani, falsafiy ruh bilan ziynatlangani haqida to'xtalib, 90-yillar shoir ijodida yangi bosqichning – etuklik sari borishning boshlanishi bo'lganligi ta'kidlanadi. Bu davrda shoirning "Yonimdagi daryolar", "Qorachig'dagi dunyo", "Oydinlik", "Bir qujoq gul", "Yolg'iz yaproq" she'riy to'plamlari nashr qilinib, o'z o'quvchilari qalbidan joy olgan edi. Maqolada shoirning o'quvchini o'yga toldiradigan, falsafiy mushohadaga chorlaydigan she'rlari tahlilga tortiladi. Mualliflar shoir ijodini tahlil qilib, "Matnazar Abdulhakim – o'ychan va intellektual mushohada shoiri. Uning fikrlash ko'lamiga, ko'ngil sarhadlariga butun dunyo sig'adi. Olam sevinchlari-yu tashvishlari, inson ruhiyati evrilishlari, ijodkorning yurak va aql mushohadasi orqali go'zallik bilan ziynatlanadi. Uning talanti, avvalo,

¹ Орипов А. Теран ижод / Матназар Абдулҳакимни эслаб. – Тошкент: LESSON PRESS, 2016. – Б. 3-4.

² Абдуллаев Х. Мангуликка мухтасар назар. Урганч. "Хоразм" нашриёти. 2018. 60 бет

borliqni ziyrak kuzatish, undagi narsa va hodisalardan poetik, zalvorli mazmun topa bilishda ko'rinadi. Bunda inson va hayot muammosi talqini asosiy o'rin tutadi",- degan xulosaga keladilar.

Olim "Tarjimachilikka qo'shilgan hissa" maqolasida Matnazar Abdulhakim tarjimalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladi. Xususan, Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyotida 2009 yil chop etilgan "Mangulik jamoli" (tarjimon talqinlari) kitobi haqida fikr yuritib, bu asarni Matnazar Abdulhakimning tarjimachilik sohasidagi izlanishlarining yangi bosqichi sifatida baholaydi. Tarjimon mahorati va o'ziga xos original uslubi haqida quyidagi diqqatga molik fikrlarni keltiradi: "Muallifning alohida xizmati shundaki, u mumtoz Sharq she'riyati daho namoyandalarining forsiy tildagi merosini o'zbekchalashtirishga dadil jur'at etdi, bu sohadagi izlanishlar doirasini yanada kengaytirdi. Xususan, Bedil asarlari tarjimasi bu boradagi jiddiy yutuq bo'ldi"³. Hamdam Abdullayev Matnazar Abdulhakimning tarjima sohasidagi yutuqlarini sanar ekan, uning zullisonaynlik hodisasiga alohida e'tibor qaratgani, xorazmlik shoirlar merosining bir qismi forsiyda ekanligini o'rganib, ular ijodidan ayrim namunalarni "Mangulik jamoli" kitobidan o'rin olganligini alohida ta'kidlab o'tadi va kitob faqat tarjima haqida emas, balki mumtoz nazmni o'qish va uqish, shaxs ma'naviy kamolotida badiiyatning rolini anglashda ham ahamiyatga molik ekanligini uqtiradi.

Olimning "Fikrdoshlar hayrati" deb nomlangan maqolasi adabiyotshunos H.G'ayipova bilan hamkorlikda yozilgan va "Sharq yulduzi" jurnalida (2016, 5-son) nashr qilingan. Maqolada mualliflar O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov va Matnazar Abdulhakimning ijodiy munosabati, ustoz-shogirdlik maqomi xususida salmoqli fikrlar bildiriladi. Bunga undagan sabab esa Abdulla Oripovning Matnazar Abdulhakim haqidagi "Teran ijod" nomli maqolasi va undagi samimiy fikrlari edi. O'z o'rnida Matnazar Abdulhakim Abdulla Oripovni o'ziga ustoz bilib, unga ixlos qo'ygani, ustozni "hazrat" deb atab, ijodiy ta'sirlangani va rag'bat olgani ma'lum. "Nur vasli" nomli maqolasida Matnazar Abdulhakim Abdulla Oripov ijodini tahlil qilib, unga juda yuksak baho beradi. Abdulla Oripovning so'z qo'llash, uning ma'no nozikliklaridan mohirona foydalanish salohiyati tahsinga loyiq jihatlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Maqolada bu ikki ijodkor o'rtasidagi samimiy munosabat, ijodiy rag'bat fikrlar uyg'unligi va mavzular mushtarakligi asosida tahlil qilinadi. Zero, Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda ular o'rtasida "ajib bir fikrdoshlik rishtalari" bor edi.

Kitobdagi "Yo'qdur she'rdan bo'lak hech larzam", "Ibrat – noyob qadriyat", "Sakkizlikdagi sakkiz hikmat va hayrat", "Falsafiy-badiiy talqinda o'ziga xoslik", "Matnazar Abdulhakim aforizmlari" kabi qator maqolalarda shoir ijodining o'ziga xos jihatlarini yoritilib, muayyan xulosalar chiqariladi.

Risoladagi "Qalblarga muhrlangan ijod" deb nomlangan maqola alohida diqqatga sazovordir. Chunki u marhum shoir Matnazar Abdulhakimga maktub tarzida bitilgani bilan alohida qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, maktub inson kashf etgan tarixga muhrlanib qoluvchi go'zal, ta'sirchan va qulay muloqot shakllaridan biridir. Hamdam Abdullayev ma'naviy barhayotlik ato qilingan shoir Matnazar Abdulhakimga ehtiromini, dilidagi ezgu kechinmalarini maktub orqali samimiy tarzda bayon qiladi va shoir zamondoshlarining u haqdagi yuksak e'tiroflarini sanab o'tadi: "Mashhur zamondoshlaringizdan Abdulla Oripov Sizni "butun vujudi, borlig'i, iste'dod ganjiga to'liq inson edi", Erkin Vohidov "Navoiy yo'lidagi shoir", Ozod Sharafiddinov esa "ajoyib ijodkor", Rahmat O'tkir "tiniq tuyg'ular kuychisi", Oshiq Erkin "falsafiy she'riyatimiz zargari" deb atadilar"⁴. Hamdam Abdullayev maktubda shoirning mangulikka daxldor ijod va hayot

³ Абдуллаев Х. Мангуликка мухтасар назар. Урганч. "Хоразм" нашриёти. 2018. Б.10.

⁴ Абдуллаев Х. Мангуликка мухтасар назар. Урганч. "Хоразм" нашриёти. 2018. Б.17.

yo'liga batafsil to'xtalib, shoirga qalbini ochadi, shaxsiy fikr-o'ylarini, his-tuyg'ularini samimiy bayon qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Hamdam Abdullayevning "Mangulikka muxtasar nazar" (Matnazar Abdulhakim shaxsiyati va ijodiga chizgilar) risolasi zamonaviy o'zbek adabiyotining mahoratli vakillaridan biri, merosi esa yuksak badiiy-ma'naviy qadriyat, bezavol ijod namunasi bo'lgan Matnazar Abdulhakim siymosini to'la tasavvur qilish, ijodining o'ziga xos jihatlarini anglashda muhim manba sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Орипов А. Теран ижод / Матназар Абдулҳакимни эслаб. – Тошкент: LESSON PRESS, 2016. – Б. 3-
- 2.Абдуллаев Ҳ. Мангуликка мухтасар назар.Урганч. "Хоразм" нашриёти. 2018. 10,17,60-бет
- 3.Boboev T.Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent. O'qituvchi, 2001.-556 b.
- 4.Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent. Sharq. 2002.- 254 b.
5. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. -Toshkent. Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijod uyi. 2018